

BUXORO VILOYATI SUG'ORILADIGAN O'TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARINING AGROKIMYOVIY XOSSALARI

¹Qodirova Dilrabo Abdulkarimovna

²Xurramov Sa'dulla Allanazarovich

¹Toshkent davlat agrar universiteti b.f.d., professor

²Toshkent davlat agrar universiteti assistent o'qituvchi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22026809>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro viloyatining Romitan hamda Buxoro tumanlarida tarqalgan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining agrokimyoviy xossalari jumladan, gumus miqdori, N, P, K ning umumiy va harakatchan shakli miqdorlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'tloqi-allyuvial, singdirish kompleksi, denitrifikatsiya, mg/kg, ta'minlanganlik darajasi, haydalma qatlam.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований агрохимических свойств лугово-аллювиальных почв Ромитанского и Бухарского районов Бухарской области. В частности, приведены данные о содержании гумуса, а также о суммарном содержании и подвижных формах азота, фосфора и калия (N, P, K).

Ключевые слова: лугово-аллювиальные почвы, почвенно-поглощающий комплекс, денитрификация, мг/кг, степень обеспеченности, пахотный горизонт.

Abstract. This paper examines the agrochemical properties of meadow-alluvial soils in the Romitan and Bukhara districts of the Bukhara region. Specifically, it presents data on humus content, as well as the total concentrations and available forms of nitrogen, phosphorus, and potassium (N, P, K).

Keywords: meadow-alluvial soils, soil absorbing complex, denitrification, mg/kg, nutrient supply level, arable layer.

Kirish. Hozirgi vaqtda tuproq unumdorligini oshirish muammolari dunyoda o'z yechimini kutayotgan eng muhim dolzarb masalalardan biri bo'lib, ular kompleks izlanishlarni talab etadi. Tuproqlarning agrokimyoviy xossalari uning unumdorligida, o'simliklar o'sishi va rivojlanishi, hosil to'plashida muhim ahamiyatga ega. Bunda gumus, oziq moddalarning umumiy miqdori asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar tuproq qatlamlari bo'yicha turlicha bo'ladi. Tuproq pastki qatlamlari bo'yicha gumus miqdorining kamayishi tuproqning agrokimyoviy xossalariga salbiy ta'sir qiladi.

Asosiy qism. Olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, Romitan tumani sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 2-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida gumus miqdori 0,846-1,271%, pastki qatlamlarida esa 0,594-0,682% ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida gumus miqdori 1,318-1,562%, pastki qatlamlarida esa 0,789-0,839 % ni tashkil etganligi aniqlandi.

Ushbu tuproqlar umumiy azot miqdori bo'yicha tuproqlarining 2-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida azot miqdori 0,067-0,094%, pastki qatlamlarida 0,051-0,055% ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida esa 0,097-0,111%, pastki qatlamlarida 0,059-0,062% ni tashkil etganligi aniqland.

Umumiy fosfor miqdori bo'yicha esa tuproqlarning 2-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida gumus miqdori 0,37-0,40%, pastki qatlamlarida 0,26-0,37% ni tashkil etgan,

sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida esa 0,31-0,32%, pastki qatlamlarida 0,20-0,25% ni tashkil etganligi aniqlandi.

Umumiy kaliy miqdori bo'yicha tuproqlarning 2-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida 0,90-0,91%, pastki qatlamlarida 0,86-0,88% ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida esa 0,93-0,96%, pastki qatlamlarida 0,80-0,87% ni tashkil etganligi aniqlandi (1-jadval).

Romitan tumani sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 2-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida azotning nitrat shaklidagi miqdori 14,12-18,40 mg/kg, pastki qatlamlarida 6,12-9,45mg/kg ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida esa 19,51-24,80 mg/kg, pastki qatlamlarida 8,44-12,67 mg/kg ni tashkil etganlig bo'lsa, harakatchan fosfor miqdori tuproqlarining 2-kesmasida haydalma va haydalma osti qatlamlarida 18,4-20,7 mg/kg, pastki qatlamlarida 11,2-17,1 mg/kg ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida esa 17,6-22,4 mg/kg, pastki qatlamlarida 15,0-15,2 mg/kg ni tashkil etganligi aniqlandi.

Mazkur tuproqlarda almashinuvchi kaliy miqdori tuproqlarining 2-kesmasida haydalma va haydalma osti qatlamlarida 61-61 mg/kg, pastki qatlamlarida 48-49 mg/kg ni tashkil etgan, tuproqlarning 5-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida esa 104-127 mg/kg, pastki qatlamlarida 84-89 mg/kg ni tashkil etganligi aniqlandi.

Buxoro tumani sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 24-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida gumus miqdori 1,01-1,619%, pastki qatlamlarida esa 0,684-0,778% ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 53-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida gumus miqdori 0,778-1,257%, pastki qatlamlarida esa 0,665-0,741 % ni tashkil etgan holda, 24-kesmaning haydalma va haydalma osti qatlamlarida umumiy azot miqdori 0,074-0,117%, pastki qatlamlarida esa 0,059-0,063% ni tashkil etgan. 53-kesmaning haydalma va haydalma osti qatlamlarida 0,061-0,092%, pastki qatlamlarida esa 0,056-0,059 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Buxoro tumani sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 24-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida umumiy fosfor miqdori 0,31-0,36%, pastki qatlamlarida esa 0,22-0,27% ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 53-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida 0,26-0,28%, pastki qatlamlarida esa 0,16-0,20% ni tashkil etgani holda, tuproqlardagi umumiy kaliy miqdori 24-kesmada haydalma va haydalma osti qatlamlarida 1,21-1,24%, pastki qatlamlarida esa 0,11-0,19% ni tashkil etgan bo'lsa, 53-kesmaning haydalma va haydalma osti qatlamlarida 1,12-1,14%, pastki qatlamlarida esa 1,04-1,09% ni tashkil etganligi aniqlandi.

1-jadval.

Sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarning kimyoviy agrokimyoviy xossalari

Tuproq qatlamlari, sm	Gumus %	Umumiy, %			Harakatchan mg/kg		
		N	P	K	N-NO3	P2O5	K2O
2-kesma. Romitan tumani Xalqobod massivi "Zarafshon" fermer xo'jaligining o'tloqi-allyuvial tuproqlari							
0-30	1,271	0,094	0,40	0,90	18,40	20,7	67

30-48	0,846	0,067	0,37	0,91	14,12	18,4	61
48-82	0,682	0,055	0,37	0,88	9,45	17,1	49
82-112	0,594	0,051	0,26	0,86	6,12	11,2	48
5-kesma. Romitan tumani Xalqobod massivi "Zarafshon" fermer xo'jaligining o'tloqi-allyuvial tuproqlari							
0-30	1,562	0,111	0,32	0,96	24,80	22,4	127
30-48	1,318	0,097	0,31	0,93	19,51	17,6	104
48-82	0,839	0,062	0,25	0,87	12,67	15,2	89
82-114	0,789	0,059	0,20	0,80	8,44	15,0	84
24-kesma. Buxoro tumani O'zbekiston massivi "Zarifota" fermer xo'jaligi o'tloqi-allyuvial tuproqlari							
0-32	1,619	0,117	0,36	1,24	26,43	30,1	124
32-57	1,01	0,074	0,31	1,21	21,20	27,2	108
57-87	0,84	0,063	0,27	1,19	14,87	23,6	94
87-103	0,778	0,059	0,24	1,18	9,55	15,5	86
53-kesma. Buxoro tumani O'zbekiston massivi "Zarifota" fermer xo'jaligi o'tloqi-allyuvial tuproqlari							
0-33	1,257	0,092	0,28	1,14	20,31	32,6	165
33-48	0,788	0,061	0,26	1,12	15,63	23,4	141
48-85	0,741	0,059	0,20	1,09	8,92	10,6	133
85-117	0,665	0,056	0,16	1,04	5,46	8,3	128

Buxoro tumani sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarida oziq elementlarining harakatchan shakillariga ko'ra, 24-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida azotning nitrat shaklidagi miqdori 21,20-26,43 mg/kg, pastki qatlamlarida esa 6,41-14,87 mg/kg ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 53-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida 15,63-20,31 mg/kg, pastki qatlamlarida esa 5,46-8,92 mg/kg ni tashkil etadi. Ushbu tuproqlarning 24-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida harakatchan fosfor miqdori 27,2-30,1 mg/kg, pastki qatlamlarida esa 12,6-23,6 mg/kg ni tashkil etgan, sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlarining 53-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida 23,4-32,6 mg/kg, pastki qatlamlarida esa 8,3-10,6 mg/kg ni tashkil etgan.

Tuproqlardagi almashinuvchi kaliy miqdori 24-kesmada haydalma va haydalma osti qatlamlarida 108-124 mg/kg, pastki qatlamlarida esa 73-94 mg/kg ni tashkil etgan. 53-kesmasi haydalma va haydalma osti qatlamlarida 141-165 mg/kg, pastki qatlamlarida esa 128-133 mg/kg ni tashkil etganligi aniqlandi.

Xulosa. Tajriba maydoni sug'oriladigan o'tloqi-allyuvial tuproqlari nitrat shaklidagi azot bilan ta'minlanganligi bo'yicha juda kam va kam ta'minlangan guruhga mansub, harakatchan fosforning miqdori bo'yicha tuproqning juda kam va kam ta'minlanganligi, almashinuvchan kaliy miqdori bo'yicha ham o'rganilgan tuproqlarni juda kam va kam ta'minlangan tuproqlar qatoriga kiritish mumkin. Oziqa moddalar miqdorining kamligi tuproqqa organik moddalarning asosiy manbai bo'lgan o'simlik qoplaminin kamligi, sho'rlanishning ta'siri bilan bog'liqdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Аринушкина Е.В. Руководства по химическому анализу почв. - М.: МГУ. 1970.- 487с.
2. «Методы агрохимических анализов почв и растений Средней Азии» Ўз ПИТИ. 1977.
- С. -263.